



INTRODUCTION OF THE CONCEPT OF "MENTALITY" INTO SCIENCE AND ITS SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Raushana Kurbaniyazova

Associate Professor, PhD

Urgench Branch of the Tashkent Medical Akademy

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "National spirit", "national character", self-awareness, behavior, customs, traditions, language, mentality.

Received: 05.06.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

Abstract: This article discusses the introduction of the concept of mentality into scientific circulation. Human history is a process that is carried out in the process of culturally conditioned activity of individuals, social groups, and communities, the integrity and direction of which are determined by their mentality.

"MENTALITET" TUSHUNCHASINING ILM-FANGA KIRIB KELISHI VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Raushana Kurbaniyazova

Dotsent, PhD

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

O'zbekiston, Urganch

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Xalq ruhi", "milliy xarakter", o'z-o'zini anglash, xulq-atvor, urfodat, an'ana, til, mentallik, mentalitet.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mentalitet tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi yoritilgan. Insoniyat tarixi - bu shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, shuningdek jamoalarning madaniy jihatdan aniqlangan faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan, yaxlitligi va faoliyat yo'nalishi ularning mentaliteti bilan belgilanadigan jarayondir.

ВВЕДЕНИЕ ПОНЯТИЯ «МЕНТАЛИТЕТ» В НАУКУ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Раушана Курбаниязова

Доцент, PhD

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Народный дух», «национальный характер», самосознание, поведение, обычаи, традиции, язык, ментальность, менталитет.

Аннотация: В данной статье рассматривается введение в научный оборот понятия менталитет. Человеческая история – это процесс, который осуществляется в процессе культурно обусловленной деятельности индивидов, социальных групп, а также общностей, целостность и направленность которой определяются их менталитетом.

KIRISH

XX asrning 80-yillaridan boshlab mentalitet termini ijtimoiy-gumanitar fanlarga kirib kela boshladи. Jamiatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayotida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar, o‘z kelajagi va taraqqiyoti tomon yuz tutayotgan millatlar tafakkur tarzini ma’lum bir me’yor asosida belgilashga tabiiy zaruriyat va ehtiyoj vujudga keldi.

Har qanday siyosiy-ijtimoiy tizimning samarali faoliyati uning individiga ruhiy ta’sir ko‘rsatib, uni tizim maqsadlari bilan mushtarak bo‘lgan xatti-harakatlarga rag‘batlantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan jamiyat rivojlanishi maqsadlarini anglab olgan individ va jamoa xulq-atvorida vujudga kelgan mushtaraklik ijtimoiy taraqqiyotda ijobiy rol’ o‘ynaydi.

Insoniyat tarixi - bu shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, shuningdek jamoalarning madaniy jihatdan aniqlangan faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan, yaxlitligi va faoliyat yo‘nalishi ularning mentaliteti bilan belgilanadigan jarayondir.

Hozirgi paytda mentalitet fenomeni bir qancha fanlar: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, madaniy antropologiya, etnosotsiologiya, etnopsixologiya doirasida o‘rganilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mentalitet tushunchasini ilmiy muomalaga frantsuz tadqiqotchilari L.Levi-Bryul’, L.Fevr va M.Blok kiritgan. Mentalitet o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. G‘arb ilm-fanida Sh.L. Montesk’e, I.G.Gerder, E.Dyurkgeym, J.Le Goff, MDH davlatlarida A.Ya.Gurevich, N.N.Gubanov, A.A.Ashxamaxova, V.V.Kozlovskiy, R.Z.Zul’karnayeva, X.U.Urunova tadqiq etganlar.

O‘zbekistonlik taniqli olimlardan Q.H.Xonazarov, M.B.Bekmurodov, A.Begmatov, A.Xolbekov, U.Idirov, B.T.To‘uchiev, N.A.Shermuhamedova, S.Otamurodov, I.S.Soifnazarov, Sh.O.Madaeva, A.Asqarov, A.A.Ashirov, F.Turg‘unboev tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini: ob'ektivlik, tarixiylik va mantiqiylilik tamoyili, analiz va sintez, umumlashtirish usullari tashkil etadi.

Natija va muhokama

XIX asr o'rtalarigacha "mentalitet" atamasi ilmiy muomalaga kiritilmagan, uning mazmuni "xalq ruhi", "milliy xarakter" tushunchalari bilan belgilangan.

XVIII asrda Sh.L. Montesk'e ijtimoiy falsafaga "xalq ruhi" tushunchasini kiritdi. Muallif uning shartliligi masalasiga geografik determinizm nuqtai nazaridan yondashdi: iqlim va tuproq tufayli tabiatga ta'sir etuvchi xalqlarning ma'naviy xususiyatlari an'ana va urf-odatlarda jamlanadi. "Odamlarni ko'p narsa nazorat qiladi: iqlim, din, qonunlar, davlat boshqaruvi tamoyillari, o'tmish namunalari, axloq, urf-odatlar, bularning barchasi natijasida xalqning umumiyligi shakllanadi"[12].

"Milliy xarakter", "xalq qalbi", "xalq ruhi" tushunchalarini I.G.Gerder xalq ruhining nafaqat iqlim va lanshtaftga, balki tarbiya, turmush tarzi, etnik tarix va siyosiy tizimga ham bog'liqligi haqida yozgan. Uning fikricha, xalq ruhi millat tarixiy taraqqiyotining harakatlanuvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi, madaniyatni ma'naviyatga aylantiradi, urf-odat, an'ana va tilda o'zini namoyon qiladi. Ayniqsa, xalq ruhini o'rganish fol'klorda, xalq og'zaki ijodida o'zini to'la namoyon qiladi, birinchi navbatda etnik guruhning dunyoqarashi va turmush tarziga ta'sir qiladi [4].

G.V.F.Gegel' "xalq ruhi"ni o'z-o'zini anglash bilan aniqlab, etnik o'z-o'zini anglashning yetuklik va xalq tafakkurining ratsionallik darajasi sifatida tushuntiradi.

1856 yildan boshlab amerikalik faylasuf R.Emerson haqiqat va qadriyatlarning asosiy manbai sifatida ma'no jihatidan "jon" bilan mos keladigan "mentalitet" leksemasidan foydalana boshladi.

Keyinchalik frantsuz olimi E.Dyurkgeym asoslagan "ijtimoiy hamjihatlik" ta'limoti kishilar o'rtasidagi ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi xalqa sifatida tushuntirilgan. Uni "mexanik hamjihatlik" va "organik hamjihatlik" turlariga ajratgan. Arxaik jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik inson axloqini qattiq nazorat qiluvchi diniy ishonch, urf-odat, an'analar orqali ijtimoiy ongga singdiriladi. Organik hamjihatlik bo'lgan zamonaviy ijtimoiy aloqalarda ijtimoiy birlashuv individlarning iqtisodiy o'zaro aloqalari va mehnat taqsimoti orqali ta'minlanadi. Jamoaviy tasavvurlar orqali mentalitetning vazifalari va mohiyatini ochib bergan [4, 575].

Mentalitet atamasi ilmiy muomalaga frantsuz etnologi va sotsial antropologi L.Levi-Bryul'[9, 404] tomonidan kiritilgan, u o'zining "Ibtidoiy mentalitet" asarida mentallik tushunchasidan sotsiumning fikriy, psixologik umumlashmasi sifatida foydalananadi. Asar ibtidoiy

jamiyat haqidagi deyarli uch asr davomida dunyoning turli burchaklaridagi olimlar, sayyoohlar, missionerlar sayohatchilar tomonidan to‘plangan juda ko‘p faktik materiallar asosida yozilgan fundamental tadqiqot bo‘lib, ibridoiy jamiyatlar ma’naviy hayoti, xususan ularning o‘ziga xos diniy tasavvurlari va tafakkuri muammolariga bag‘ishlangan.

Asarda zamonaviy va ibridoiy odamning tafakkuri o‘rtasidagi tub farqlar tushuntirilgan.“Ibtidoiy davrni “mantiqdan oldingi” fikrlash nazariyasi sifatida ilgari suradi.

L.Levi Bryul’ turli taraqqiyot darajasidagi jamiyatlar tiplarida jamoaviy tasavvurlar namoyon bo‘lish xususiyatlarni o‘rgandi va antropologik tadqiqotlar yo‘nalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bir qancha xalqlarning jamoaviy hayotini zamonaviy tushunchalar asosida idrok etishga harakat qilganda yuzaga keladigan xatolarni ta’kidladi. “Jamoaviy tasavvurlar avloddan-avlodga o‘tib, ularda sharoitga qarab, hurmat, qo‘rquv, sajda qilish va hokazolarni uyg‘otadi”[10, 9].

Mentalliklar tarixi, tarixiy tadqiqotlarning maxsus yo‘nalishi sifatida, Frantsiya tarix fanida XX asrning 20-30-yillarida paydo bo‘lgan. Mazkur yo‘nalish doirasida ijtimoiy yoki antropologik yo‘naltirilgan tarix tadqiqot predmetiga aylangan. “Ijtimoiy tarix” markazida ijtimoiy birlikning madaniyatni yaratuvchi yoki o‘zlashtiruvchi vakili sifatidagi inson turadi.

Tarix fanini jamiyatdagi inson, fikrlovchi va his qiluvchi ijtimoiy mavjudot haqidagi fan sifatida yaratish dasturi M.Blok va L.Fevr tomonidan 20-yillarning oxirida ochilgan “Annallar” jurnali sahifalarida ishlab chiqilgan. Aynan ularning asarlarida Evropa o‘rta asrlar tarixiga nisbatan “mentallik” tushunchasi qo‘llanilgan. M.Blok va L.Fevr “mentalitet” tushunchasiga “dunyoni his etish” tushunchasini kiritish orqali tarixiy fanlarga olib kirdi. Bungacha mazkur atama etnologlar tomonidan faqat ibridoiy xalqlarga nisbatan qo‘llanilar edi [5, 79].

M.Blok mentalitetning din va xalq diniy e’tiqodlari masalalari bilan bog‘lagan. O‘qimishli elitaning aqliy hayoti tarixi (inglizcha “intellectual history”) bilan shug‘ullangan L.Fevr mentalitet individ yoki ijtimoiy guruhning fikrlari, tuyg‘ulari va xulq-atvor tarzini belgilaydigan va uning qadriyatlari va me’yorlari tizimini shakllantiradigan , tadrijiy va tarixiy vujudga kelgan tuzilmadir, [16, 11] deb hisoblagan.

Umuman olganda “ijtimoiy tarix”da mentalitetni o‘rganishda marginal ijtimoiy guruhlar va qatlamlar-jinoyatchilar, telbalar, fohishalar, dahriylar va hokazolarga alohida qiziqish namoyon bo‘lgan. Frantsiya tarix fanining boshqa bir taniqli namoyandası J.Le Goff butun jamiyat mentalitetini nazarda tutgan holda, mentalitet nooqilona va nonormal xulq-atvorda ayniqsa aniq-ravshan namoyon bo‘ladi, degan fikrni ilgari surgan [16, 18-19].

G‘arb fanida mentalitet muammosi endilikda tarixiy bilimning bosh masalasiga aylandi. Bu masalaning yechimini topish atrofida Frantsiyaning “Annallar” maktabi va AQSH, Angliya, Italiya, Germaniya, Pol’sha tarixshunosligi vakillarining eng sara kuchlari jamlangan.

Hozirgi adabiyotlarda “mentalitet” tushunchasining etimologiyasi har xil talqin qilinadi. Ayrimlar uni lotincha “mens” so‘zi va undan XV asr sxolastikasi tilida yasalgan “mentalis” sifati (mens, mentis – aql va alis – boshqalar) bilan bog‘laydilar [1, 25].

Ba’zi olimlar fikriga ko‘ra, mentalitet “dunyo haqidagi tasavvur” degan ma’noni anglatadigan frantsuzcha “mentalite” so‘zidan kelib chiqqan [5, 19]. Amalda dastlab taxminan XVII asrda vujudga kelgan va ingliz falsafasining mahsuli sanalgan va ayni shu sababli falsafiy atama bo‘lib qolgan inglizcha mentality paydo bo‘lgan bo‘lsa kerak. Frantsiyada “mentalite” so‘zi XVIII asrda (qisman Vol’ter ijodi ta’sirida) so‘zlashuv tiliga kirib kelgan, lekin XX asr boshigacha neologizm sifatida qaralgan.

Ingliz tilidagi hozirgi lug‘atlarda “mentality” atamasi “aqlning ayrim individni yoki individlar sinfini tavsiflovchi xossasi” [14, 454], “fikrlash tarzi, mulohazalar yo‘nalishi yoki xususiyati” [20,1411], sifatida talqin qilinadi.

Chet el ilmiy adabiyotlarida ham mentalitet ko‘pincha aql xususiyati bilan ayniylashtiriladi. Jumladan D.Fil’d mentalitetni aqlning mantiqiy shaklga ega bo‘lmasa ham, tizimli xususiyat kasb etadigan, moddiy hayotda ildiz otgan va aholining aksariyat qismida keng tarqalgan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan barqaror xossasi [16, 8], deb hisoblaydi.

Ko‘pgina g‘arb olimlari ishlatgan mentalitet tushunchasi shu darajada ambivalent bo‘lib chiqqanki, J.Le Goff o‘z vaqtida hatto mazkur tushunchaning mujmalligi bilan murosa qilishni taklif etgan, chunki “aynan shunda uning boyligi hamda o‘rganilayotgan ob’ekt bilan hamohang bo‘lgan serma’noliligi namoyon bo‘ladi” [2, 40].

Ayrim olimlar g‘arb adabiyotlarida mentalitet atamasi turli xil hodisalarini anglatgani bois, bu masalada faqat chet el adabiyotlariga tayanish maqsadga muvofiq emas,[15, 10] deb hisoblaydilar.

Ammo keyingi yillarda nashr etilgan adabiyotlarda ham “mentalitet” tushunchasining maqbul ta’rifi mavjud emas, chunki bu yerda ham u inson aqlining rang-barang xossalariiga tadbiq etiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi A.A.Ashxamaxovaning fikricha ham “...olimlar mentalitetning yagona tushunchasini aniqlamaganlar...” [3, 24]. U o‘z doktorlik ilmiy-tadqiqot ishida “mentalitet” mavzusi bo‘yicha barcha qilingan ishlarni tahlil qilish asosida, “ mentalitet bu tabiiy

ma'lumotlardan yuzaga keladigan sotsial komponentlar bilan bog'liq va insonning hayotiy dunyosini olib beradigan umumiylidir" [3, 23], - degan ta'rifni beradi.

Ba'zilar mentalitetning tizimlashgan xarakterini ma'qullaydi, boshqalar uchun esa – mentalitet ma'naviy hayot hodisalarining shunchaki yig'indisi xolos, Biroq umumiy holatda barcha ham mentalitetning ko'p qatlamlı, murakkab tarkibini qayd etadi. "Bizningcha, mentalitet madaniy o'zlikni anglash kanallari orqali o'tadigan borliqni baholash va idrok etish tuzilishidir" [7, 11-12].

Darhaqiqat, mentalitet tushunchasining mazmunini ta'riflash muammosi mazkur ijtimoiy-madaniy hodisaning o'ta murakkabligi bilan belgilanadi. Gap shundaki, ko'rib chiqilayotgan fenomenni identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan muayyan mezonlarni qayd etish juda qiyin. Ayni hol har qanday voqeа yoki hodisaning mohiyatini tavsiflash va u tasodifiy emas, balki qonuniy xususiyat kasb etishini va shu bois maxsus ilmiy metodikalar yordamida aniqlanishi mumkinligini isbotlash imkoniyatini beradigan sababiy bog'lanishlar majmuining o'ta nomuayyanligi va o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Ba'zan mentalitet muayyan davr, geografik hudud va ijtimoiy muhit kishilarining tasavvurlari, qarashlari va tuyg'ulari yig'indisi, jamiyatning tarixiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi alohida psixologik ukladi sifatida tavsiflanadi. Mentalitet tushunchasiga ta'rif ko'pincha ong kategoriysi orqali beriladi. Bunda mentalitet "jamoa va individual ongning ongsizlikni ham o'z ichiga oluvchi teran daroji, individ va ijtimoiy guruhning muayyan tarzda harakat qilish, fikrlash, his qilish va dunyoni idrok etishga tayyorligi, mo'ljallari va moyilliklari yig'indisi" sifatida qaraladi.

Ayrim tadqiqotchilar "mentalitet" va "mentallik" tushunchalarini farqlaydilar. Jumladan, V.V.Kozlovskiy "umuman olganda mentalitet bilish, his etish jarayonlarida va xulq-atvor xususiyatida namoyon bo'ladigan, konkret ijtimoiy birlik vakillarining aksariyatiga xos bo'lgan qadriyatlar va mo'ljallar tizimi bilan to'ldiriladigan fikrlash uslubi, aql yo'nalishidir" [8, 12], deb hisoblaydi. Mentalitet "mentalliklarning tartibga solinganligini" ifoda etadi va "atrof borliqqa munosabat andozasini belgilaydi, tashqi sharoitga moslashish imkoniyatini ta'minlaydi va ijtimoiy xulq-atvor muqobillarini tanlashni tartibga soladi" [8, 35].

V.V.Kozlovskiy mentalitetni "mentalliklarning tartibga solinganligi" ifodasi sifatida tavsiflar ekan, uning tarkibida: 1) ma'nolar tizimi; 2) qadriyatlar; 3) odatdagи intellektual va affektiv reaktsiyalar; 4) madaniyat kodlari; 5) qabul qilingan va rad etiladigan xulq-atvor shakllari; 6) ijtimoiy tasavvurlar; 7) gabitusni farqlaydilar [8, 37]. Shunday qilib V.V.Kozlovskiy mentallik deganda arxaik qadriyatlarni, faoliyatning ma'naviy kodlarini, moyilliklarni, mentalitet deganda esa – kognitiv mo'jal olish usulini tushunadi. Ayni shu sababli mentalitet qadriyatlarni

o‘z ichiga olmaydi, lekin ularni o‘zining borliqni idrok etish, baholash va o‘zlashtirish sxemalari yig‘indisiga jamlaydi, deb hisoblaydi.

Mentallik – individ yoki ijtimoiy guruhning harakatlari, his qilish va olamni idrok etishdagi o‘ziga xos me’yorlar va qiziqish moyilliklari yig‘indisidir. Mentalitet esa – ma’lum bir kishilar jamoasi va guruhiga xos bo‘lgan odatlar, e’tiqod, ruhiy me’yorlar yig‘indisi, aql idroki, odob-axloq harakatlari va me’yorlar, fikrlash tarzidir.

Mentallik N.Shermuhamedova fikricha “odatdagi turmush va faoliyat tarzining kundalik namoyon bo‘lishi, saqlanishi” [19, 34] dir. Bu esa mental jihatlar yig‘indisi “ayrim ijtimoiy guruhlar va submadaniyatlarga xos bo‘lgan ijtimoiy tasavvurlarning kundalik hayotdan mustahkam o‘rin olgan odatdagi (arxaik) strukturalarini aks ettiradi” [19, 34]. Darhaqiqat, mentallik ruhiy holat emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomendir, chunki uning barcha elementlari madaniyat kodlari, simvollar, moddiy shakllar (moddiylashtirish mahsuli) va faoliyatning sinashta usullari, ya’ni ijtimoiy-madaniy maydonidagi amaliy xulq-atvorning odatdagi shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarda “mentalitet” tushunchasi, uning mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyatlari kam o‘rganilgan masalalardan biridir.

Taniqli olimlardan Q.H.Xonazarov, M.B.Bekmurodov, A.Begmatov, A.Xolbekov, U.Idirov, B.T.To‘ychiev, N.A.Shermuhamedova, Sh.O.Madaeva, S.Otamurodov, I.S.Soifnazarov, A.Asqarov, A.A.Ashirov, F.Turg‘unboev, F.S.Atamuratova tomonidan o‘rganilgan.

Mentalitetga birinchi bor professor M.B.Bekmurodov: “Mentalitet (mens –aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tashkil topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etuvchi kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Jamiyat, millat va shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi” [13, 118-119], – deb ta’rif berganlar.

Professorlar A.Xolbekov va U.Idirov tomonidan berilgan ta’rifda: “Mentalitet (lot. mens-aql, tafakkur) – individ yoki bir ijtimoiy guruhning, millatning dunyoni ma’lum bir tarzda tushunish va harakat qilishga tayyorligi va moyilligi”[17, 83], - deb izohlaganlar.

Professor Q.X.Xonazarov mentalitet haqida quyidagicha yozadi: “millatning mentaliteti, tabiiyki, faqatgina qadriyatlar xazinasi bilan belgilanmaydi. Milliy mentalitet millatning kundalik hayotda uning o‘zini tutishi, bo‘layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga munosabati, xulq-atvori, fe’li, xatti-harakati orqali ham namoyon bo‘ladi” [18, 3]. Milliy mentalitetga berilgan bu ta’rifda uning “qadriyatlar xazinasi” bilan bog‘liqligi haqidagi g‘oya ilgari suriladi. Haqiqatan ham

milliy mentalitetga qadriyat sifatida qarash mumkin. Chunki u millatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllanib, uning hayot kechirishi, yashash va turmush tarzining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Professor Sh.O.Madaeva tomonidan ilmiy-tadqiqot ishida: “mentalitet – elat, xalq, millat, jamoa, guruh, shaxsning tarixiy bosib o‘tgan yo‘li, biofiziologik rivojlanishi, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, diniy, ekologik, maishiy hayot uyg‘unligi ta’sirida shakllangan, tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy, aqliy salohiyati, hayotiy muammolarga qarshi tura olish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan fikriy qobiliyati bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy-siyosiy darajasi, ma’naviy kamolotida hal qiluvchi omildir” [11, 33], –deb ta’rif berilgan.

Keltirilgan ta’riflarda mentalitetni o‘rganish jarayonidagi nazariy asoslardan kelib chiqib quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Bizning fikrimizcha, mentalitet u yoki bu jamiyatning bir madaniyatga mansub bo‘lgan kishilarida ularga o‘z tabiiy va ijtimoiy muhiti hamda o‘z-o‘zini o‘ziga xos tarzda idrok etish va anglab etish imkoniyatini beradigan muayyan “aqliy vosita”, “ruhiy dastak” mavjudligini anglatadi.

Mentalitetga shaxslararo, davlatlararo munosabatlar va jarayonlarni bevosita boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sifatida qaralishi mumkin. Hozirgi zamon fanida mentalitet ijtimoiy tanlash nazariysi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Mazkur nazariyaga muvofiq, faoliyat keyingi rivojlanishi uchun turli imkoniyatlar mavjud bo‘lgan vaziyatda amalga oshiriladi. Bu yo‘l tanlash muammosini vujudga keltiradi, uni yechishda turli siyosiy kuchlar ishtirok etadi. Bu yerda, eng avvalo, ijtimoiy rivojlanish yo‘lini tanlash lozim. Bu yo‘l, birinchi navbatda, ijtimoiy ongda muayyan g‘oyalar, qadriyat va mo‘ljallarga aylanadigan umum ahamiyatga molik maqsad va manfaatlar bilan belgilanadi. Shu bilan bir vaqtda, u faoliyatning ijtimoiy imkoniyatni voqelikka aylantirishga qaratilgan ehtimol tutilgan usullarini tanlashni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda:

- Insoniyat tarixi - bu shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, shuningdek jamoalarning madaniy jihatdan aniqlangan faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan, yaxlitligi va faoliyat yo‘nalishi ularning mentaliteti bilan belgilanadigan jarayondir;
- Jamiyat tarixining barqaror rivojlanishi yoki tanazzulining tub mohiyati kishilarning tafakkur tarzi, ya’ni ularning mentalitetiga bog‘liq bo‘ladi;
- Mentalitetning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u voqelik haqida umumiyy tasavvur hosil qilishda ishtirok etadi, shaxsning ongida mutlaq stereotiplarning singib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, shu tariqa dunyoqarashning yaxlitligi va yagonaligini ta’minlayli. Bilimning vorisiyligini

ta'minlash orqali mentalitet ijtimoiy voqelik an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol' o'yaydi.

– Mentalitet sub'ektlarning o'z-o'zini identifikatsiyalashni amalga oshirish, ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirish va ularning birligini ta'minlash vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ануфриев Е.А., Лесная Л.В. Менталитет как социально-политический и духовный феномен. //Социально-политический журнал, 1997. №3. –С.25.
2. Астахов С. История ментальностей. // Историческая антропология. - Ростов на Дону: Феникс, 2002. -С. 40.
3. Ашхамахова А.А. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное.-Нальчик, 2006. –С. 24. Ўша манба. – С.23.
4. Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. Москва:Наука, 1977.
5. Гуревич А.Я. Проблема ментальностей в современной историографии. //Всеобщая история: дискуссии, новые подходы. – Москва: Наука, 1989. – С. 79; 19.
6. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. Москва: Наука, 1990. -575 с..
7. Зулькарнаева Р.З. Национальный менталитет в условиях трансформации современного российского общества. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. –Уфа, 2004. –С. 11-12.
8. Козловский В.В. Понятие ментальности в социологической перспективе. //Социология и социальная антропология. –СП(б): Алетейя, 1997. –С.12; 35; 37.
9. Люсьен Леви-Брюль. Первобытный менталитет. Перевод с французского У.Кальшикова. – Санкт-Петербург: Европейский дом, 2002.-404 с.
10. Люсьен Леви-Брюль Л. Сверхчестственное в первобытном мышлении. –Москва, 1994. –С.9.
11. Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация . –Тошкент, 2009. –Б.33.
12. Монтескье Ш.Л. О духе законов. // URL: <http://www.civisbook.ru>.
13. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Тошкент: Шарқ, 2000. –Б.118-119.
14. Reber A.S.The penguin dictionary of psychology. –London: Penguin, 1985. –P.454.
15. Розин В. Ментальность народов мира. (Специфика сознания больших групп населения). –Москва: АСТ, 1997. – С.10.
16. Фильд Д. История менталитета в зарубежной исторической литературе. //Менталитет и аграрное развитие (XIX-XX вв.). Материалы международной конференции. – Москва: Гос.полит.энциклопедия, 1996. –С. 11; - С.18-19; -С. 8.
17. Холбеков А., Идиров У. Социология (изоҳли луғат-маълумотнома) –Тошкент, 1999. –Б.83.
18. Хоназаров Қ.Ҳ. Миллий менталитет – тараққиёт омили. // Мулоқот журнали. – Тошкент, 2000, №3. –Б. 3.
19. Шермуҳамедова Н.А. Особенности национального менталитета. // ФарДУ хабарлари, 2002.- С.34; -С.34.
20. Webster's Third International Dictionary. –London, 1961. –Р. 1411.